

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR KITOBXONLIGI

O'zbekiston tuman 4-son texnikum o'qituvchilari

Ergasheva Nigora

Yunusov Anvarjon

Habibullaev Azizbek

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shular bayon qilinadiki, maktab yoshidagi bolalarning qanday qilib kitob o'qishga jalb qilish, ularni kitobga bo'lgan mehr-muhabbatining qanday shakllanishi hamda uni doimiy ravishda so'ndirmasdan bardavom qilish uchun qilinadigan ishlarva adabiyot gulshanlari berilgan.

KALIT SO'ZLAR: bolalik, ona allasi, adabiyot namunalari, bolalar adabiyoti, ertak, qo'shiq, topishmoq, maqol, tez aytish, xalq og'zaki ijodi

Bola - bu beg'uborlik, shodonlik, samimiyat, go'zal va betashvish umr mezonidir. Uning harakatlari va quvnoqligi kishini lol qoldiradi. Odatda bola bu dunyoga kelibdiki, birinchi navbatda onani taniydi, onaizorning hidini, qadam tashlashini, nafas olishini, darxol biladi. Ona bir qadam o'zidan uzoqlashsa harhasha qiladi, yig'laydi. Chunki bu norasida bola onaning qornidayoq uni o'ziga kashf qilib olgan. Shu onaning ko'magida atrof-muhit bilan, o'zini qurshab olgan olam bilan tanishadi. Shu bilan birgalikda, onaning allasi, qo'shig'i, ertagi, murg'ak qalbida bir umrga muhrlanib qoladi. Adabiyot namunalarini tinglab, voyaga yetgan bolalarning o'yinlari, ularning shoxliklari, xayollari, qiziqishlari, g'ayraoddiy gap-so'zlari - bular bolalarning ma'naviy dunyosini boyitadigan omillardan biri hisoblanadi. Ertak, alla, topishmoq, maqollarda kuzatganimizdek, insonlarga, jonzotlarga, ta'biatga bo'lgan mehr-muhabbat, do'stlik va o'rtoqlikning ilk tiyg'ulari, yaxshilikka nisbatan uyg'ongan dastlabki minnatdorchilik hissi, har narsaga chanqoqlik bilan qiziqib qarash kabilarning barcha-barchasi bolaning ma'naviy dunyosini boyitishi, uning xayoli va tasavvurini kengaytirishi lozim.

Bu davr bolalar kitobxonligi, asosan, ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Hali hech narsani bilmaydigan ya'ni o'qish, yozish va chizishni bilmaydigan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan butunlay bexabar bo'ladilar. Ular misoli oq qog'oz bo'lishadi. Bu oq qog'ozga go'zal tasvirni tushira olish o'qituvchining eng oliy vazifasidir. Qiziquvchan bolajonlar esa har narsaga darrov kirishib ketadilar. Kichkintoylar o'zlari qurshagan olamni tezroq bilib olishga, uni o'rganishga intiladilar. Bunda ota-onalar va tarbiyachilar bolalarga yaqindan yordam berishlari lozim hisoblanadi. Bu davr bolajonlariga o'qib beriladigan har qanday asarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, kitoblarning rasmlari rang-barang, harflari esa yirik-yirik bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki maktab yoshidagi bola o'yinqaroq bo'ladi, atrofdagi rang-barang narsalarga qiziqadi. Yana-da ular tez charchab qolishadi, shuning uchun ularning yozuvlari kata va soda ko'rinishda bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tinglaydigan asarlarning ko'pchiligini alla-qo'shiq, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish xalq og'zaki ijodiy asarlari tashkil etadi. Bulardan tashqari yozuvchilarning asarlari ham maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun qo'l keladi. Bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan asarlar ularga zavq-shavq bag'ishlaydi. Jumladan, bolalar shoiri Anvar Obidjonning "Suhbat", Shukur Sadullaning "Lola va mushuk" kabi she'rlari misol bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar o'zlari tinglagan asarlari yordamida asta-sekin atrof-muhit bilan tanishadilar, ona yurtga mehr-oqibatli bo'lishni, tabiatni asrashni va mehnatni sevishni o'rganadilar, eshitgan ertak qahramonlarini xatti-harakatlarini baholashga o'rganadilar. Shular kabi ro'llarini ijro etib ko'radilar. Bunday tuyg'u ularga zavq bag'ishlaydi va yanada o'rganishga ehtiyoj ortib boraveradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar adabiyoti - o'ziga xos adabiyot. Bu o'ziga xoslikning asosini uning o'quvchilariga emas, asosan eshituvchi tinglovchi bolalarga mo'ljallanganidan izlash kerak. Bu adabiyotning kattalar, kichik va o'rta yoshli maktab o'quvchilari adabiyotiga o'xshash va farqli xususiyatlari bor. Ular bir-biridan qiziqarliligi bilan nihoyatda go'zal suratda gavdalanadi. Barcha yoshdagi o'zbek bolalar adabiyotining

mavzulari, g'oyalari, obrazlari nihoyatda xilma-xil. Bu asarlarning pedagogik-tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ularda insoniylik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik, o'rtoqlik, do'stlik, to'g'rilik, xalollik, oqillik, qo'rqqanlik, jasurlik, samimiylik va boshqa ijobiy fazilatlar ulug'lanadi: qo'rqqanlik, munofiqlik, xudbinlik, dangasalik, aldamchilik, ayyorlik, manmanlik, odobsizlik kabi yomon hulq-atvorlar qoralanadi: Adiblarimiz o'zlarining eng yaxshi asarlarida badiiylarning asosiy bo'laklarini tashkil etuvi aks ettirish va obraz yaratish usullari vositalaridan foydalanganlar va maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyotining o'ziga xosligi masalalariga rioya qilganlar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar janrlari kattalar va maktab o'quvchilari nashriga nisbatan unchalik ko'p emas. Bog'cha yoshidagi bolalar nasrida yirik hajmli, murakkab qurilmali asarlar - roman qissa janrlarida yozilgan asarlar ham uchramaydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi jahon bolalar nasrida bo'lganidek shu yoshdagi o'zbek bolalar nasrining ham eng taraqqiy etgan janrlari ertak va hikoyadir. O'zbek adabiyotlari insonparvarlik, vatanparvarlik, baynalminal, ahloqiy, tarbiyaviy va boshqa g'oyalarini kichkintoylar qalbiga qiziqarli, ta'sirli shakllarda yetkazishda ertak va hikoya janrlarining o'ziga xos badiiy xususiyatlaridan ijodiy foydalanganlar. Jamlab aytadigan bo'lsak, biz bo'lajak kadrlar har bir ilmni sinchiklab o'rganishimiz va bolalar uchun foydali va kelajagini yorqinroq qilishga o'z ulushimisizni qo'shadigan buyuk ishlarni qilishimiz - buyuk vazifamizdir.

Bolalar adabiyoti – [bolalar](#) va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui. Bularning asosiy qismini badiiy asarlar tashkil etadi. Jahon xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqi Bolalar [adabiyoti](#) tez aytilish, topishmoq, o'yin qo'shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, maqol, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalari boshlanadi. Bolalar adabiyotini bevosita bolalarga mo'ljallab yaratilgan va aslida bolalarga mo'ljallanmagan bo'lsa-da, keyinchalik Bolalar adabiyotiga o'tib qolgan asarlarga ajratish mumkin.

Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyati – u **o'zgaruvchan** hodisa bo'lib, u kitobxon yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Kitobxon yoshini

hisobga olish Bolalar adabiyotining eng asosiy xususiyatlaridandir. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarda bu ko'rgazmalilik, ezgulik va yovuzlik kuchlarining oddiy ko'rinishdagi ziddiyatlariga asoslangan bo'lsa, o'smirlar uchun yaratilgan adabiyotda murakkab hayotdagi murakkab kishilarning ruhiyati ochila boshlaydi.

Bolalar adabiyotining yana bir xususiyati uning **harakatga boyligidir**. Bundan Bolalar adabiyotida syujetga bo'lgan talab ham kelib chiqadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fantaziyaga, yumorga boy ravishda yechilishini talab qiladi.

Sharq yozma adabiyotida „pandnoma“, „mav'izatnoma“, „nasihatnoma“, „axloq kitoblari“ singari nomlar bilan tasnif qilinuvchi asarlar Bolalar adabiyotining dastlabki namunalari hisoblanadi. Masalan, Kaykovusning „Mav'izatnomai Kaykovus“ („[Qobusnoma](#)“), Shayx Sa'diyning „Guliston“ va „Bo'ston“, Jomiyning „[Bahoriston](#)“ asarlari shular jumlasidandir. Bular tarjima vositasida o'zbek Bolalar adabiyotiga kirib kelgan. Alisher Navoiyning „[Hayrat ulabror](#)“, „[Mantiq ut-tayr](#)“ va „[Mahbub ul-qulub](#)“ asarlari, Xojaning „Miftoh ul-adl“ va „Gulzor“, Gulxaniyning „Zarbulmasal“ asarlari esa o'zbek Bolalar adabiyotining mumtoz namunalari bo'lib, pand-nasihat ruhidagi maqolat va hikoyatlari bilan asrlar mobaynida yosh avlodni yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda.

Bolalar adabiyotining shakllanishi deyarli barcha xalqlarda asosan ma'rifatparvarlik va maktab-maorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog'liq. O'zbek Bolalar adabiyotining barqarorlashuvi ham XIX asr 2 yarmi – XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakatiga borib taqaladi. Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, [Abdulla Avloniy](#), [Hamza Hakimzoda Niyoziy](#) va boshqa o'nlab ma'rifatparvarlarning „Yangi usul“ („usuli jadidiya“)dagi o'zbek maktablari talabalari uchun yaratgan ellikka yaqin alifbo va o'qish kitoblari o'zbek Bolalar adabiyotining tom ma'nodagi yorqin namunalari hisoblanadi. Bolalar adabiyotiga bolalar uchun maxsus yaratilgan asarlar sifatida qarash, uning o'ziga xos tamoyillarini belgilash XX asr boshlariga xosdir.

O‘zbek Bolalar adabiyoti jahon Bolalar adabiyotining ilgor an‘analari ta’sirida rivojlandi. Jahon Bolalar adabiyotining nodir namunalari o‘zbek tiliga tarjima qilindi, „[Gulliverning sayohatlari](#)“ (J. Svift), „Robinzon Kruzo“ (D. Defo), „Tom tog‘aning kulbasi“ (Bicher Stou), „So‘na“ (E.Voynich) kabi jahon adabiyotining nodir asarlari o‘zbek bolalarining ham mulki bo‘lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Husanboyeva, M.Hazratqulov, Sh.Jamoldinova "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi" kitobi. Toshkent-2020
2. R.Tolipova, O.Mavlonova, D.Xojaeva "Til va adabiyot ta'limi" kitobi. Toshkent-2004
- 3.fayllar.org
4. Internet ma'lumotlari